

BOLA PSIXIK TARAQQIYOTIGA FAOL TA'SIR QILUVCHI OMILLAR

Abdurahmonova Dildora Mamasaidovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bola psixik taraqqiyotiga ta'sir etuvchi asosiy omillar; ijtimoiy, tarbiyaviy, faoliyat hamda emotsional –ruhiy muhit omillari chuqur tahlil qilinadi. Bola ruhiy rivojlanishiga oilaviy muhit, tarbiya uslublari, ta'lim tizimi, ijtimoiy muhit va genetik omillarning ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, bolada ijtimoiy va intellektual rivojlanish jarayonlarini boshqaruvchi asosiy psixologik omillar ilmiy jihatdan izohlanadi. Maqola natijalari pedagog va psixologlar uchun shaxs sifatida shakllanishini chuqurroq tushunishga yordam beriladi. Maqolada bola psixik rivojlanishining tabiiy va ijtimoiy shart-sharoitlar, shuningdek, ota-ona va pedagoglarning bola shaxsini rivojlantirishdagi roli yoritilgan.

Kalit so'zlar: Bola psixik rivojlanishi, irsiyat, ijtimoiy muhit, tarbiya, faoliyat, ruhiy muhit, shaxs kamoloti, oila tarbiyachi, pedagogik.

ФАКТОРЫ, АКТИВНО ВЛИЯЮЩИЕ НА ПСИХИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ РЕБЕНКА

Аннотация: В данной статье голубоко проанализированы основные факторы, влияющие на психическое развитие ребенка: социальные, образовательные и эмоционально-духовные факторы среды деятельности. Проанализировано влияние семейной среды, методов воспитания, системы образования, социальной среды и генетических факторов на психическое развитие ребенка. Также научно обоснованы основные психологические факторы, регулирующие процессы социального и интеллектуального развития

ребенка. Результаты статьи помогают педагогом и психологом лучше понять становление человека как личности. В статье освещены природные и социальные условия ребенка, а также роль родителей и педагогов в развитии личности ребенка.

Ключевые слова: Психическое развитие ребенка, наследственность, социальная среда, воспитание, деятельность, духовная среда, развитие личности, семейный воспитатель, педагогика.

FACTORS THAT ACTIVELY INFLUENCE A CHILD'S MENTAL DEVELOPMENT

Abstract: This article deeply analyzes the main factors affecting the mental development of a child; social, educational, and emotional-spiritual factors of the activity environment. The influence of the family environment, upbringing methods education system, social environment, and genetic factors on the mental development of a child is analyzed. Also, the main psychological factors governing the processes of social and intellectual development in a child are scientifically explained. The results of the article help educators and psychologists to better understand the formation of a person. The article highlights the natural and social conditions of a child's mental development, as well as the role of parents and educators in the development of child's personality.

Keywords: Child's psychological development, heredity, social environment, upbringing, activity, spiritual environment, personal development, of a educator, pedagogy.

Kirish. Bola psixik taraqqiyotiga faol ta'sir qiluvchi omillar miras, muhit va bolaning o'z-o'zini faol harakatga keltirishi kabi omillarni o'z ichiga oladi, bu esa olimlar tomonidan ko'plab tadqiqotlar asosida aniqlangan. Ularning fikricha, irsiyat bolaning potensialini shakllantiradi. Shuningdek bolaning o'zini faol tutishi, atrofdagi dunyoni o'rganishi va o'z harakatlari orqali tajriba orttirish ham psixik taraqqiyotning muhim omilidir. Vygotskiyning fikricha, bola psixik

taraqqiyoyiga ijtimoiy muhit va kattalar bilan muloqot asosiy ta'sir ko'rsatadi. U shunday degan; "Bola taraqqiyoti uning kattalar bilan o'zaro aloqasi jarayonida ro'y beradi." U "yaqin taraqqiyot zonasi" nazariyasini ilgari surgan, ya'ni bola kattalar yordami bilan o'z imkoniyatlaridan yuqori darajada rivojlana oladi. Bola psixik taraqqiyoti inson shaxsining shakllanishidagi eng muhim bosqichlardan biridir. Bu jarayon bola tug'ilgan paytidan boshlab bosqichma-bosqich kichadi va butun voyaga yetish davrini qamrab oladi. Bola psixik rivojiga ta'sir etuvchi omillar turlicha bo'lib, ular biologik (Irsiy), ijtimoiy, pedagogic hamda ruhiy muhit bilan chambarchas bog'liq. Har bir bola o'ziga xos, takrorlanmas shaxs bo'lgani sababli, ularning rivojlanish jarayonini to'g'ri yo'naltirishda ota-ona, tarbiyachi va o'qituvchilarning roli beqiyosdir.

Asosiy qism. *Bola psixik taraqqiyotiga faol ta'sir qiluvchi omillar uning atrof-muhiti, o'quv faoliyati, shaxsiy xususiyatlari va irsiyat bilan bog'liq. Bu omillarning barchasi birgalikda bolaning aqliy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi. Bola psixik taraqqiyotining boshlang'ich manbasi irsiyatidir. Irsiyat orqali bola ota-onasidan nerv tizimi, temperament, iste'dod, aqliy va fiziologik xususiyatlarini meros qilib oladi. Bu omillar bolaning rivojlanish imkoniyatini belgilaydi. Biroq irsiyat bola rivojlanishining yagona belgisi emas, u faqat asosdir. Psixologlar psixik rivojlanishning umumiy qonuniyatlari borligini qayd etib ko'rsatmoqdalar. Biroq muhit ta'siriga nisbatan bu qonuniyatlarning ikkilamchidir, chunki nu qonuniyatlarning o'ziga xos xususiyatlari hayot sharoitiga faoliyatiga va tarbiyaga bog'liqdir. Inson shaxsining tarkib topishi va psixik rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning muammosi o'z mohiyati jihatidan g'oyaviy xarakterga ega. Shu bois, bu masalani hal qilishda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli oqimlar, yo'nalishlar maydonga kelgan. Inson shaxsining tarkib topishini tushuntirishda maydonga kelgan birinchi oqim biogepeetik kontsepsiya, nazariya bo'lsa, ikkinchi oqim sotsiogenetik kontsepsiyadir.*

Ijtimoiy muhit; bolaning psixik rivojlanishida eng faol tashqi *omillardan* biridir. Oila, maktabgacha ta'lim muassasasi, do'stlar, qo'shnilar bularning barchasi bolaning dunyoqarashi, axloqi va ruhiyati shakllanishiga bevosita ta'sir qiladi. Mehr, e'tibor hurmat va o'zaro tushinish mavjud bo'lgan oilada o'sgan bola o'z fikrini erkin ifoda etadi. Bolaning oila muhiti, ota-onalar va yaqin atrofdagi odamlarning munosabati uning psixikasining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Bolalar ijtimoiylashgan sayin, ular ijtimoiy munosabatlarni o'rganadilar va shaxs sifatida shakllanadilar. Maktab va tarbiyaviy muassasalar, ta'lim jarayoni bolalar psixikasining rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Ijtimoiy muhit bolaning psixikasiga chuqur ta'sir qiladi va uni shakllantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bola tug'ilganda hayvoniy xislatlarga ega bo'lib, ijtimoiy muhit bolani shaxs sifatida rivojlantiradi va hayvoniy xususiyatlardan yiroqlashtiradi. Ijtimoiy muhit bola o'zining birinchi ijtimoiy tajribalarni oladi, oilaviy muhit kichik ijtimoiy muhit sifatida boshlang'ich ta'sir ko'rsatadi, lekin bola maktab yoki kengroq ijtimoiy muhitga kirishi bilan uning munosabatlari va xulq-atvori tubdan o'zgaradi. Ijtimoiy muhit bolaning ijtomoilashuvi jarayonida uning boshqalar bilan muloqot qilish madaniyatini, munosabatlarni boshqarish qoidalarini o'rganishga yordam beradi. Bu jarayonda ota-onaning roli juda muhim bo'lib, ular bolaning faqat oziqlantirish bilan cheklanmay, uning agressiyani boshqarishi, jinsiy identifikatsiyasi va boshqa yoshga doir psixologik muammolarni bartaraf qilishda kata yordam berishi zarur. Ijtimoiy muhit bola uchun yangi sharoitlar yaratib, uning shaxs sifatida barqaror shakllanishini ta'minlaydi. Shuningdek, ijtimoiy muhit farzandning xulq-atvorini, munosabatlarini, hissiyotlarini va hamda ijtimoiy qobiliyatlarni shakllantiradi, shuning uchun bolalarning ijtimoiylashuv jarayoni ota-ona va jamiyatning ijobiy ta'siri bilan yengillashadi. Bola psixikasi yoshga bog'liq ravishda o'zgaradi. Masalan, boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar odatda impulsiv, hissiy va injiq bo'lishlari mumkin. Bu yoshdagi bolalarda aqliy faoliyat his-tuyg'ular bilan bog'liq bo'lib, ularning irodasi va xulqini tartibga solish qiyinroq bo'ladi.

Tarbiya bola psixikasining yo'nalishini belgilovchi eng muhim omillardandir. To'g'ri tarbiya bolaning axloqiy, aqliy jismoniy va estetik rivojlanishini ta'minlaydi. Tarbiyada bolaga e'tibor, mehr, sabr-toqat, *tushunish muhim ahamiyatga ega. Bola o'zini qadrlangan deb his qilsa*, u o'qishga, o'rganishga va ijodiy fikrlashga intiladi. Noto'g'ri yoki qo'pol muomala esa bolamimh ruhiy holatiga salbiy ta'sir qiladi.

Emotsional muhit bolaning ruhiy sog'lomligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bola o'zini sevilgan, qadrlangan va tushunilgan deb his qilganida, unda ijobiy his tuyg'ular ustun bo'ladi. Agar bola stress, qo'rquv yoki befarqlik muhitida yashasa, u o'zini himoyasiz his qiladi, bu esa ruhiy rivojlanishni sekinlashtiradi. Shuning uchun ota-onalar va pedagoglar har doim bolaga mehr bilan yondashishlari, ruhiy osoyishtalikni ta'minlashlari lozim.

Faoliyat bolaning psixik rivojlanishida asosiy mexanizm bo'lib, o'yin, o'qish va mehnat jarayonlarini o'z ichiga oladi. O'yin- bolaning asosiy faoliyati sifatida uning bilish faoliyatini, tafakkurini, diqqatini va muloqot malakasini shakllantiradi. O'qish jarayonida esa u bilim oladi, fikr yuritish, xotira, diqqat va nuqt kabi psixik jarayonlar rivojlanadi. Mehnat faoliyati esa ma'suliyat, sabr va irodaviy sifatlarini mustahkamlaydi. Bolaning xotirasi, diqqatini jamlash qobiliyati, ichki psixologik qurollarning shakllanishi va o'z-o'zini ta'sirlash qobiliyati flagolli ahamiyatga ega. Bu xususiyatlar bolaning o'qish, ish faoliyatida *va munosabatlarida ko'rsatiladigan izdoshlarni belgilaydi*.

O'quv faoliyati: Bola o'z atrof-muhitini o'rganib, yangi bilimlarni o'zlashtirishi uning psixik taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Shaxsiy xususiyatlar; Har bir bolaning o'ziga xos shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari va qobiliyatlari uning rivojlanishiga o'ziga xos yo'nalish beradi.

Atrof-muhit: Oilaviy muhit, do'stlar, maktab va jamiyatning o'zibolaning psixik taraqqiyotini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Irsiyat: Genetik moyilliklar ham bolaning psixik rivojlanishiga ta'sir qiladi, ammo bu ta'sir atrof-muhit omillari bilan birgalikda namoyon bo'ladi

Ta'lim va tarbiya jarayoni: I.S.Vigotiskiyning ta'kidlashicha, ta'lim tarbiya jarayoni psixik rivojlanishdan oldinda bo'lib, bolaning ijtimoiy tajribasini oshiradi va uni mustaqil harakatga tayyorlaydi. Ta'lim va tarbiya bolaga psixik rivojlanish uchun sharoit yaratadi va infantli xususiyatlarni yangi malaka va ko'nikmalarga almashtirishga yordam beradi. Individual psixologik xususiyatlar bu har bir bolaning nerv tizimi turi, hissiy xususiyatlari, diqqatni jamlash qobiliyati va shaxsiy tajribasi psixik rivojlanishning o'zgaruvchanligini belgilaydi. Shu sababli, ta'lim va tarbiyaga bo'lgan javob har bir bola uchun turlicha bo'lishi mumkin. Biologik omillar esa bolaning bosh miya va asab tizimining rivojlanishi, nasllanish, nerv tizimining o'ziga xos xususiyatlari va organizmning umumiy sog'lig'i bilan bog'liqdir. Bolaning miyasi yetilish darajasi uning psixik rivojlanishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, jiddiy kasalliklar yoki buzilishlar psixik rivojlanishni sekinlashtiradi yoki orqada qolishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa. Bola psixik taraqqiyoti-bu biologik, ijtimoiy va pedagogik omillarning o'zaro ta'siri natijasida kechadigan murakkab jarayondir. Irsiyat bolaning tabiiy imkoniyatlarini belgilasa, ijtimoiy muhit va tarbiya ushbu imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradi. Faoliyat va emotsional muhit esa bola psixik jarayonlarini yanada boyitadi va mustahkamlaydi. Bola shaxsining to'liq shakllanishi uchun barcha bu omillar uyg'un holda ta'sir etishi zarur. Demak, bolaning ruhiy rivojlanishi faqat biologik jihatlar bilan emas, balki muhabbat, tarbiya, ijtimoiy muhit va faoliyat tarziga bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimova V.M. *Umumiy psixologiya-Toshkent O'zbekiston faylasuflari jamiyati nashriyoti 2020*
2. Zunnunov A. Yuldasheva R. *Pedagogik psixologiya. Toshkent 2019*
3. Vygotskiy L. S. *Psixik rivojlanishining ijtimoiy tabiati. Moskva; Pedagogika 1984*
4. Abdullayeva N. *Bola psixologiyasi, Toshkent; TDPU nashriyoti 2021*

5. Qodirova F. Bola shaxsini tarbiyalashda oilaning roli. Toshkent; Ma'naviyat 2022
6. Vygotskiy L.S. "Myshleniye I rech" (1934)
7. Lev Semjonovich Vygotskiy asarlari.
8. Z.T. Nishonova, G.Alimova. "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi" Toshkent 2006

